

## Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2018 yil yanvar– iyul holatiga

### RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **2175 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,8 % kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1973 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-iyul oyida viloyatda 2760 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 406 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55,7 % ga kamaygan hamda ularning soni 787 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2059 ta (9,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 23120 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (31,6 %), Urgut (9,2%), Pastdarg'om (7,6%) va Samarqand (8,6%) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Samarqand viloyati	24503	100,0	23120	100,0
Samarqand sh.	7755	31,6	7316	31,6
Kattaqo'rg'on sh.	865	3,5	845	3,6
tumanlar :				
Oqdaryo	939	3,8	889	3,8
Bulung'ur	906	3,7	858	3,7
Jomboy	806	3,3	767	3,3
Ishtixon	1230	5,1	1137	4,9
Kattaqo'rg'on	1129	4,6	1046	4,5
Qo'shrabot	563	2,3	538	2,3
Narpay	893	3,7	866	3,7
Payariq	1330	5,4	1251	5,4
Pastdarg'om	1938	7,9	1762	7,6
Paxtachi	634	2,6	584	2,5
Samarqand	1691	6,9	1593	6,9
Nurobod	680	2,8	615	2,7
Urgut	2179	8,9	2127	9,2
Tayloq	965	3,9	926	4,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,4 % savdoda, 18,3 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,2 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**




2018 yil yanvar-iyul holatiga 2760 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (817 ta), Samarqand (234 ta), Urgut (200 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (193 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (55 ta), Narpay (68 ta) hamda Qo'shrabot (75 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoatda (572 ta), savdoda (568 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (374 ta), qurilishda (335 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (273 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa, axborot va aloqada (43 ta), tashish va saqlashda (63 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (72 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-iyulda	2018 yil yanvar-iyulda
<b>Jami:</b>	<b>2354</b>	<b>2760</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	316	374
Sanoat	662	572
Qurilish	209	335
Savdo	488	568
Tashish va saqlash	73	63
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	281	273
Axborot va aloqa	54	43
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	57	72
Boshqa turlari	214	460

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 avgust holatiga 18014 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4649 ta, oilaviy korxonalar – 2048 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10821 ta, boshqalarda 496 tani tashkil etdi.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 350 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 87 taga yoki 33,0 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 261 tasi qo'shma korxonalar, 89 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahri (181 ta, 51,7 %), Urgut (37 ta, 10,5 %) va Jomboy tumanlari (27 ta, 7,7 %) hissalariga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot va Kattaqurg'on (1 ta, 0,3 %), Narpay va Payariq (4 ta, 1,1 %) hamda Paxtachi (5 ta, 1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa, mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 220 ta (62,9 %), savdoda 47 ta (13,4 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 20 ta (5,7 %) tashkil qilgan.

Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (1,1 %), axborot va aloqada 3 ta (0,9 %), tashish va saqlashda 5 ta (1,4 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 29 ta (8,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10 ta (2,9 %) va qurilishda 12 ta (3,4 %) tashkil qilgan.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da






2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 71 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko'paygan yoki 2,8 barobarga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi – 15 ta, Koreya Respublikasi – 12 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-7 ta va Ukraina-3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 25 ta, savdoda 14 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 13 ta, qurilishda 10 ta va boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 17903 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 12,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6101 tasi (34,0 %) Samarqand shahriga, 1700 tasi (9,5 %) Urgut, 1324 tasi (7,4 %) Samarqand hamda 1320 tasi (7,4 %) Pastdarg'om tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17903 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5153 tasi (28,8 %) - savdoda, 4196 tasi (23,4 %) - sanoatda, 1965 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1639 tasi (9,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1418 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 719 tasi (4,0 %) - tashish va saqlashda, 371 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 422 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2020 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 2482 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida (766 ta), Samarqand (223 ta), Urgut (177 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (168 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (44 ta), Narpay (59 ta) hamda Qo'shrobood (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (572 ta), savdoda (568 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (373 ta) va qurilishda (335 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (43 ta), tashish va saqlashda (63 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (72 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 2127 tani tashkil etib, ulardan 2048 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **40,2** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 33,6 % yoki 688 tasi sanoat, 27,2 % yoki 557 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,4 % yoki 376 tasi savdo, 9,3 % yoki 191 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 23 tasi qurilish, 1,7 % yoki 34 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 17 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 8 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,5 % yoki 154 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**  
(0371) 230-85-42,43

